

Bozor Iqtisodiyotiga O'tayotgan Davlatlarning Iqtisodiy Rivojlanish Modellarini

Abdurazaqova Gulnaxon

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent
axborot texnologiyalari universiteti Farg'ona filiali talabasi

Yetmishboyev Shaxzodbek

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent
axborot texnologiyalari universiteti Farg'ona filiali talabasi

ABSTRACT

Bozor iqtisodiyoti modellarining iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarga xos bo'lgan aralash iqtisodiyot, ijtimoiy bozor xo'jaligi va korporativ iqtisodiyot ko'rinishlari mavjud.

Aralash iqtisodiyot modeli — bozor iqtisodiyotining yuksak mehnat unumi, ne'matlar to'kinchiligini ta'minlaydigan, eng mukammal texnologiya va yuqori malakali ish kuchiga ega bo'lgan turi. Bu modedda mulkiy xilma-xillik mavjud bo'ladi. Xususiy mulkning individual va hissbay shakllari ustuvorlik qiladi, davlat va nodavlat mulki, iqtisodiyotning davlat va nodavlat sektorlari taraqqiy etadi.

ARTICLE INFO

Received: 10th March 2022

Revised: 11th April 2022

Accepted: 30th May 2022

KEY WORDS:

Ijtimoiy bozor xo'jaligi modeli, korporativ iqtisodiyot modeli, texnik loyiha ishlari.

Yirik, o'rta va kichik biznes muvozanatli holatda rivojlanadi. Bozor munosabatlari bilan birgalikda nobozor munosabatlari ham mavjud bo'ladi. Bu esa sahovat va xayrehson ishlarining keng rivojlanishiga zamin yaratadi, raqobat bilan birgalikda hamkorlik aloqalari yuzaga keladi. Iqtisodiyotni boshqarishda bozor mexanizmi bilan bir qatorda davlat mexanizmi ham qo'llanadi. Mazkur modelga ommaviy farovonlik xos bo'lsada, ijtimoiy tafovutlar cheklanmaydi, davlat daromadlarni qayta taqsimlashda faol ishtirok etmaydi, bu vazifalarni bozor mexanizmi bajaradi. Aralash iqtisodiyot modeli AQSH, Angliya, Fransiyada mavjud.

Ijtimoiy bozor xo'jaligi modeli — yuksak texnologiyaga va inson omilining kuchiga tayanib yuqori mehnat unumdorligini, umuman, bozorning to'kin bo'lishini ta'minlaydi. Iqtisodiyoti bu modelga tayangan mamlakatda bozor xo'jaligi tabiiy tarixiy rivoj topadi, ishlab chiqarish bozor talablariga javoban ish olib boradi, davlatning iqtisodiyotga aralashuvi minimal darajada saqdanib qoladi, iqtisodiyot bozor kuchlari ta'sirida tartiblanadi va to'la erkinlashgan bo'ladi. Mazkur model "iqtisodiy tartib" modeli hisoblanadi. Bozordagi faoliyat tartibqoidalarini qonunlar belgilaydi, iqtisodiyot bozor mexanizmiga buysunadi, davlat iqtisodiyotning oliy xekami sifatida faoliyat ko'rsatadi, lekin o'zi bu jarayonda qatnashmaydi. Bu modelda iqtisodiyotning davlat sektoridan ko'ra xususiy sektoriga ko'proq e'tibor beriladi. Iqtisodiyotning ijtimoiy yo'nalishini bozorning o'zi belgilaydi. Har bir iqtisodiyot sub'yekti bozor qoidasiga ko'ra ishlab topgan daromadini oladi, davlat daromadlarning taqsimlanishiga kamdankam aralashadi, lekin daromadlarni shakllantirishda bozor tamoyillariga rioya etilishini, bozor mexanizmining belgilangan tartibda faoliyat ko'rsatishini ta'minlaydi. Ijtimoiy bozor xujaligi modeli Germaniya, Shvesiya va boshqa mamlakatlarda mavjud.

Korporativ iqtisodiyot modeli — korporativ manfaatlar va korporativ hamjihatlikka asoslangan bozor iqtisodiyoti bo'lib, ilg'or texnologiya, yetuk ish kuchidan foydalanib mehnat unumdorligi va aholi jon boshiga mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytiradi. Asosiy e'tibor korporativguruhliy manfaatlariga qaratiladi, iqtisodiyot korporatsiyalar orqali boshqariladi. Korporatsiyalar aksiyador jamiyatlar tarzidagi turli sanoat, savdo, transport, qurilish sohasidagi birlashmalarga aylanadi, ularning ba'zilari hatto transmilliy korporatsiyalar darajasigacha o'sib, xalqaro ahamiyat kasb etadi. Korporatsiyalar ishlab chiqarishning asosiy sohalarini qamrab oladi, ularning xorijiy shoxobchalari ham ko'payib boradi. Xususiy mulkning korporativ shakli ustuvorlik qiladi. Korporativ iqtisodiyot modelida korporatsiya manfaatlari birinchi o'ringa qo'yiladi, individual manfaatlariga faqat korporatsiya doirasida erishiladi va shu doirada ilg'or texnologiya, texnik loyiha ishlari ham olib boriladi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlab o'tish kerakki, muammolarning korporatsiya doirasida hal etilishi korporatsiyaga sadoqat, korporativ vatanparvarlik hissiyotini tarbiyalaydi. Korporatsiya xodimlar uchun yuksak turmush darajasini kafolatlaydi, xodimlar esa bunga javoban ishlab chiqarish samaradorligining yuqori bo'lishini ta'minlaydilar. Korporatsiya xodimlarning oila a'zolarini ham ish bilan ta'minlashni, qarilikda yaxshi pensiya va bir yo'la katta summada mukofotlar berishni zimmasiga oladi. Xodimlar bilan menejerlar o'rtasida inoqlik bo'ladi. Bunday choratadbirlar ijtimoiy hamjihatlikni ta'minlab, ish tashlash va boshqa noroziliklarga o'rin qoldirmaydi. Bozor iqtisodiyotining korporativ modelida iqtisodiyotning korporativ sektori xalq xo'jaligining tayanchi hisoblanadi, ammo iqtisodiyotning ikkilamchi va yetakchi bo'lmagan sohalarida nokorporativ sektor ham saqpanib qoladi. Korporativ modelda ham kichik biznes mavjud, ammo uning mustaqilligi juda chegaralanadi, u deyarli korporatsiya izmida bo'ladi, uning buyurtmalarini bajaradi. Bozor iqtisodiyoti modellari korporatsiya doirasiga tortilmaydi. Korporativ iqtisodiyot ustuvor bo'lgan mamlakatlarga Yaponiya misol bo'la oladi.